



SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS AND THE ENVIRONMENTAL DIMENSIONS OF HUMAN RIGHTS PROTECTION

Kholboev Umarjon Fakhridin oqli

Master's Student, The University of World Economy and Diplomacy

Abstract

This article analyses the relationship between the Sustainable Development Goals (SDGs) and the environmental dimensions of international human rights law from an international legal perspective. The study examines the normative convergence between the SDG framework and the human rights system, the intersection of environmentally oriented goals - including SDG-6 (clean water), SDG-13 (climate action), SDG-14 and SDG-15 (biodiversity) - with human rights obligations, and the practical implications of the recognition of the right to a clean, healthy and sustainable environment as an autonomous human right under UN General Assembly Resolution 76/300 of 2022. The research was conducted using legal analysis, comparative and systematic methods, with the 2030 Agenda for Sustainable Development, UN General Assembly resolutions, and human rights bodies' reports serving as primary sources. The findings demonstrate that, despite the real and significant normative convergence between the SDG system and the human rights system, the political nature of the goals and the absence of mandatory enforcement mechanisms remain the principal factors limiting their effectiveness. According to the 2025 UN report, only 35% of SDG targets are on track, with environmental goals showing the weakest progress. The article calls upon the international community to develop new legal instruments formally linking environmental SDGs with human rights obligations and supported by binding monitoring mechanisms.

Keywords: Sustainable development goals, human rights, environmental law, international law, right to a healthy environment, 2030 Agenda, SDG-13, climate action, accountability mechanisms, Resolution 76/300.



Introduction

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (SDG) VA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING EKOLOGIK JIHATLARI

Xolboyev Umarjon Faxriddin o‘g‘li,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti magistrature bosqichi talabasi,
e-mail: umarkholboev023@gmail.com
Tel raqam: +998919103301

Annotatsiya

Mazkur maqola Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) va xalqaro inson huquqlari huquqining ekologik jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni xalqaro-huquqiy nuqtai nazardan tahlil etishga qaratilgan. Tadqiqotda BRM tizimi va inson huquqlari tizimining me‘yoriy mushtarakligi, ekologik yo‘nalishdagi maqsadlar - jumladan, BRM-6 (toza suv), BRM-13 (iqlim harakati), BRM-14 va BRM-15 (biologik xilma-xillik) - ning inson huquqlari majburiyatlari bilan kesishish nuqtalari, shuningdek 2022 yilgi BMT Bosh Assambleyasining 76/300-sonli rezolyutsiyasi orqali sog‘lom atrof-muhitga bo‘lgan huquqning mustaqil inson huquqi sifatida tan olinishining amaliy oqibatlari o‘rganilgan. Tadqiqot huquqiy tahlil, qiyosiy va tizimli tahlil metodlari asosida olib borilgan bo‘lib, asosiy birlamchi manbalar sifatida 2030 yilgacha bo‘lgan Barqaror Rivojlanish Kun tartibi, BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari va inson huquqlari organlari hisobotlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, BRM tizimi va inson huquqlari tizimi o‘rtasidagi mushtaraklik me‘yoriy jihatdan real va ahamiyatli bo‘lsa-da, BRMlarning siyosiy maqsad sifatida shakllantirilganligi va majburiy ijro mexanizmidan mahrumligi ularning samaradorligini cheklayotgan asosiy omil hisoblanadi. 2025 - yilgi BMT hisobotiga ko‘ra, BRM maqsadlarining faqat 35 foizi belgilangan yo‘nalishda bormoqda, ekologik maqsadlar esa eng qoloq soha bo‘lib qolmoqda. Maqola xalqaro hamjamiyatni ekologik BRMlarni inson huquqlari majburiyatlari bilan rasmiy ravishda bog‘laydigan va majburiy monitoring mexanizmlari bilan ta‘minlangan yangi huquqiy vositalar ishlab chiqishga chaqiradi.



Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish maqsadlari, inson huquqlari, ekologik huquq, xalqaro huquq, sog‘lom atrof-muhit huquqi, 2030 Kun tartibi, BRM-13, iqlim harakati, hisobberdorlik mexanizmlari, 76/300-sonli rezolyutsiya

ЦЕЛИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Холбоев Умаржон Фахриддин угли,
магистрант Университета мировой экономики и дипломатии.

Аннотация

Настоящая статья посвящена анализу взаимосвязи между Целями устойчивого развития (ЦУР) и экологическими аспектами международного права в области прав человека с точки зрения международного права. В исследовании рассматриваются нормативное соответствие системы ЦУР и системы прав человека, точки пересечения экологически ориентированных целей - в частности, ЦУР-6 (чистая вода), ЦУР-13 (борьба с изменением климата), ЦУР-14 и ЦУР-15 (биологическое разнообразие) - с обязательствами в области прав человека, а также практические последствия признания права на здоровую окружающую среду в качестве самостоятельного права человека в соответствии с резолюцией Генеральной Ассамблеи ООН 76/300 от 2022 года. Исследование проводилось с применением методов правового анализа, сравнительного и системного анализа; в качестве основных первичных источников использовались Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года, резолюции Генеральной Ассамблеи ООН и доклады органов по правам человека. Результаты исследования показывают, что, несмотря на реальную и значимую нормативную взаимосвязь между системой ЦУР и системой прав человека, политический характер целей и отсутствие механизмов принудительного исполнения остаются главными факторами, ограничивающими их эффективность. Согласно докладу ООН 2025 года, лишь 35% целевых показателей ЦУР находятся на верном пути, при этом экологические цели демонстрируют наиболее слабый прогресс. Статья призывает международное сообщество разработать новые правовые инструменты, формально связывающие экологические ЦУР с



обязательствами в области прав человека и обеспеченные обязательными механизмами мониторинга.

Ключевые слова: цели устойчивого развития, права человека, экологическое право, международное право, право на здоровую окружающую среду, Повестка дня 2030, ЦУР-13, климатические действия, механизмы подотчётности, резолюция 76/300

Kirish

Insoniyatning tabiiy muhit bilan munosabati hech qachon bugungiday keskin ziddiyatlarga to'la bo'lmagan. Bir tomondan, texnologik taraqqiyot va iqtisodiy o'sish milliardlab odamlarning turmush darajasini yaxshiladi; boshqa tomondan, aynan shu taraqqiyot atrof-muhitni shiddat bilan yemirib, kelajak avlodlar uchun mo'ljallangan tabiiy boyliklarni tugata boshladi. Bu ikki ziddiyatni bir-biriga bog'laydigan tushuncha - **barqaror rivojlanish** bugun xalqaro munosabatlarning markaziy kategoriyasiga aylangan. 1987-yilda **Brundtland Komissiyasi** tomonidan "hozirgi ehtiyojlarni kelajak avlodning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini buzmasdan qondirish" deb ta'riflangan bu konsepsiya, o'tgan o'ttiz yil davomida xalqaro huquqning eng muhim me'yoriy asoslaridan biriga aylandi. 2015-yilda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi** qabul qilgan "2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun kartibi" va uning doirasidagi 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi esa bu jarayonning eng yirik siyosiy-huquqiy ifodasi bo'ldi¹.

Biroq Barqaror rivojlanish maqsadlariva inson huquqlari o'rtasidagi munosabat boshida ko'ringanidan ancha murakkabdir. 17 ta maqsadning birortasi ham bevosita "inson huquqlari" deb nomlanmagan. Ammo shu bilan birga, ushbu maqsadlarning mohiyati - qashshoqlikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, toza suv, iqlim harakati - inson huquqlarining asosiy talablari bilan to'liq mos keladi. Bu mos kelish tasodifiy emas. **2030 Agendaning** kirish qismida davlatlar "barcha inson huquqlarini ro'yobga chiqarish" ga intilishlari va hech kimni ortda qoldirmaslik majburiyatini o'z zimmalariga olishgan. Ekologik jihat esa Barqaror rivojlanish maqsadlarining eng zaif, lekin

¹ UN General Assembly (2015) "Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development", A/RES/70/1. New York: United Nations. <https://sdgs.un.org/2030agenda>



ayni vaqtda eng muhim qismidir chunki, atrof-muhit degradatsiyasi barcha boshqa maqsadlarning bajarilishiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, 2022-yilda **BMT Bosh Assambleyasining** 76/300-sonli rezolyutsiyasi bilan toza, sog'lom va barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquq birinchi marta mustaqil inson huquqi sifatida rasmiy tan olindi². Bu qaror Barqaror rivojlanish maqsadlariva inson huquqlari o'rtasidagi bog'liqlikni yangi huquqiy bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga, amalda bu bog'liqlikni samarali mexanizmlarga tatbiq etishda hali ham jiddiy muammolarga duch kelinmoqda. 2025-yilgi BMT hisobotiga ko'ra, Barqaror rivojlanish maqsadlaribo'yicha progress "juda zaif va notekis" bo'lib, 2030-yilgacha maqsadlarga erishish imkoniyati deyarli imkonsiz.

Bu sohada ilmiy munozara hali ham davom etmoqda. **Rakhyun E. Kim** o'zining fundamental tadqiqotida Barqaror rivojlanishva xalqaro huquq o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etib, Barqaror rivojlanish maqsadlarinining o'zi huquqiy me'yor emas, siyosiy maqsadlar ekanini ta'kidlaydi, ammo uning asosida turgan xalqaro shartnomaviy majburiyatlar huquqiy kuch kasb etishi mumkinligini aytib o'tgan³. Boshqacha qilib aytganda, **Kim** yondashuvi bo'yicha Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari tizimi bir-birini mustahkamlashi va izohlashi mumkin bo'lgan parallel tizimlardir. Biroq, **Fukuda-Parr** bu optimistik talqinga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. U Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosida iqtisodiy o'sish va bozor liberalizmining ustun paradigmasi yotishini ko'rsatib, bu maqsadlar o'z tabiatiga ko'ra inson huquqlarining mohiyati jihatidan tengligini ta'minlay olmasligini asoslaydi⁴. **Fukuda-Parr fikricha**, Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari tizimi o'rtasidagi munosabat hamkorlikdan ko'ra ko'proq ziddiyat xarakteriga

² UN General Assembly (2022) "The Human Right to a Clean, Healthy and Sustainable Environment", A/RES/76/300. New York: United Nations. https://digitallibrary.un.org/record/3983329/files/A_RES_76_300-EN.pdf

³ Kim, R.E. (2016) 'The Nexus between International Law and the Sustainable Development Goals', "Review of European, Comparative and International Environmental Law", 25(1), pp. 15-26. <https://doi.org/10.1111/reel.12148>

⁴ Fukuda-Parr, S. (2016) 'From the Millennium Development Goals to the Sustainable Development Goals: Shifts in Purpose, Concept, and Politics of Global Goal Setting for Development', "Gender and Development", 24(1), pp. 43-52. (PDF) From the Millennium Development Goals to the Sustainable Development Goals: shifts in purpose, concept, and politics of global goal setting for development (https://www.researchgate.net/publication/295085612_From_the_Millennium_Development_Goals_to_the_Sustainable_Development_Goals_shifts_in_purpose_concept_and_politics_of_global_goal_setting_for_development)



ega chunki, Barqaror rivojlanish maqsadlari hisobot berish va o'lchash mantig'iga asoslanadi, inson huquqlari esa majburiyat va javobgarlik mantig'iga. Ushbu maqola esa ikkala yondashuvni inobatga olgan holda, Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari o'rtasidagi ekologik jihatdagi bog'liqlikni tizimli tahlil etishga, mavjud huquqiy mexanizmlarni baholashga va ularning samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashga qaratilgan.

Material va metodlar

Mazkur maqola Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarini himoya qilishning ekologik jihatlari o'rtasidagi bog'liqlikni xalqaro-huquqiy nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan. Ushbu ilmiy maqola doirasida uchta asosiy yo'nalish tahlil etilgan. Birinchisi, 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tartibining (**Agenda**) inson huquqlari tizimi bilan me'yoriy munosabati. Ikkinchisi, ekologik jihatdagi Barqaror rivojlanish maqsadlari xususan, Barqaror rivojlanish maqsadi-6 (toza suv), Barqaror rivojlanish maqsadi-13 (iqlim harakati), Barqaror rivojlanish maqsadi-14 (suv osti resurslari) va Barqaror rivojlanish maqsadi-15 (quruqlikdagi ekotizimlar) ning inson huquqlari majburiyatlari bilan kesishish nuqtalari. Uchinchisi esa, 2022-yilgi **BMT Bosh Assambleyasining** 76/300-sonli rezolyutsiyasi orqali tan olingan sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqning xalqaro huquqiy tizimga integratsiyasi va uning amaliy tatbiqidagi muammolar.

Tadqiqotda bir nechta ilmiy metod qo'llanilgan. Asosiy metod sifatida **huquqiy tahlil** metodi tanlangan bo'lib, u xalqaro shartnomalar, BMT organlari qarorlari va rezolyutsiyalarini birlamchi manba sifatida o'rganishni o'z ichiga oladi. **Qiyosiy metod** orqali Barqaror rivojlanish maqsadlari tizimi va xalqaro inson huquqlari huquqining o'zaro munosabati, ularning o'xshash va farqli tomonlari taqqoslab tekshirilgan. **Tizimli tahlil** metodi esa mavjud xalqaro huquqiy mexanizmlarni yaxlit bir tizim sifatida baholash va ular orasidagi bo'shliqlarni aniqlash imkonini bergan. Tadqiqot obyektlari sifatida **2030 Agenda**, BMT inson huquqlari organlarining hisobotlari va tavsiyalari, xalqaro shartnomalar matni hamda soha bo'yicha yetakchi xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tanlangan.



Tadqiqot natijalari

Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarining ekologik jihatlarini o'rtasidagi bog'liqlikni to'liq tushunish uchun avvalo ushbu ikkala tizimning me'yoriy asosini aniqlash zarur. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu bog'liqlik uch qatlamdan iborat. Birinchisi - **2030 Agendaning** inson huquqlari tamoyillari bilan me'yoriy mushtarakligi. Ikkinchisi - ekologik Barqaror rivojlanish maqsadlarining aniq inson huquqiy majburiyatlari bilan kesishishi. Uchinchisi esa - 2022-yilgi BMT Bosh Assambleyasining 76/300-sonli rezolyutsiyasi orqali sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqning mustaqil inson huquqi sifatida tan olinishi va bu tan olishning amaliy oqibatlarini.

Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari tizimining me'yoriy mushtarakligi shundan iboratki, **BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy Komissarligi (OHCHR)** ta'kidlaganidek, inson huquqlari barcha 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ahamiyat kasb etadi va **2030 Agendaning** markaziy ahamiyati - **hech kimni ortda qoldirmaslik** tamoyili faqat inson huquqlariga asoslangan yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin⁵. Ushbu mushtaraklik tasodifiy emas. **2030 Agendaning** kirish qismida davlatlar "barcha inson huquqlarini ro'yobga chiqarish"ga intilishlari va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda xalqaro inson huquqlari shartnomalariga tayanishi mustahkamlangan. Shu bilan birga, muhim farq ham mavjud. **Barqaror rivojlanish maqsadlari** huquqiy majburiyat emas, siyosiy maqsadlar sifatida shakllantirilgan. Davlatlar ularni bajarmasa, xalqaro huquqiy javobgarlikka tortilmaydi. Aynan shu nuqtada inson huquqlari tizimi Barqaror rivojlanish maqsadlari tizimidan keskin farqlanadi ya'ni, inson huquqlari shartnomaviy majburiyatlarni o'z ichiga oladi va ularni bajarmaslik huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Ekologik barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari majburiyatlari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik yo'nalishdagi Barqaror rivojlanish maqsadlari inson huquqlari bilan eng bevosita kesishadigan maqsadlardir. Barqaror rivojlanish maqsadlari-6 (toza suv va sanitariya) suv huquqi bilan. Bu huquq BMT Bosh Assambleyasining 2010 - yildagi 64/292-sonli rezolyutsiyasi bilan mustaqil inson huquqi sifatida tan olingan. Biroq 2023- yilgi ma'lumotlarga

⁵ OHCHR (2023) Human Rights are Key to Ensuring No One is Left Behind. Geneva: United Nations. <https://www.ohchr.org/en/stories/2023/09/human-rights-are-key-ensuring-no-one-left-behind>



ko'ra, dunyo aholisining 26 foizi, taxminan 2,2 milliard kishi hali ham xavfsiz ichimlik suvidan mahrum. Bu holat Barqaror rivojlanish maqsadi-6 ning bajarilishi faqat siyosiy emas, huquqiy mas'uliyat masalasi ekanini ko'rsatadi⁶. Barqaror rivojlanish maqsadi-13 (iqlim harakati) esa iqlim o'zgarishi va inson huquqlari masalasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, davlatlarning issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlarini inson huquqlari kontekstida yangicha talqin qilishni talab etadi. Barqaror rivojlanish maqsadi-15 (quruqlikdagi ekotizimlar) va Barqaror rivojlanish maqsadi-14 (suv osti resurslari) esa biologik xilma-xillikning saqlanishi va sog'lom atrof-muhit huquqi bilan bog'liq bo'lib, 2022-yilgi 76/300-sonli rezolyutsiya ushbu bog'liqlikni huquqiy jihatdan mustahkamlagan.

Sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqning tan olinishi. 2022 - yil 28-iyulda BMT Bosh Assambleyasi toza, sog'lom va barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquqni 161 davlatning ovozi bilan, hech bir davlat qarshi ovoz bermagan holda, mustaqil inson huquqi sifatida tan oldi⁷. Bu qaror xalqaro inson huquqlari huquqining ekologik jihatdan eng muhim yutug'i bo'ldi. Rezolyutsiya ushbu huquqning boshqa huquqlar bilan bog'liqligi va uni ta'minlash uchun ko'p tomonlama atrof-muhit shartnomalari to'liq amalga oshirilishi lozimligini alohida ta'kidladi. Rezolyutsiyada sog'lom atrof-muhit huquqining ikkita o'lchami - "**protsessual**" va "**mohiyatiga ko'ra**" ham belgilab qo'yildi. Protsessual o'lchamga ma'lumotga kirish huquqi, jamoatchilik ishtiroki va adolatni talab qilish huquqi kirs, "**mohiyatiga ko'ra**" o'lchamiga toza havo, xavfsiz iqlim, toza suv, sog'lom oziq-ovqat va toksinsiz atrof-muhit kiradi.

Olingan ilmiy-amaliy natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotning amaliy natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari tizimining integratsiyasi nazariy jihatdan yaxshi asoslangan, ammo amalda jiddiy bo'shliqlar mavjud. **De Man** o'zining "African Human Rights Law Journal" da chop etilgan maqolasida **2030 Agendaning** inson huquqlariga asoslangan yondashuv tamoyillari - tenglik va kamsitmaslik, hisobdorlik, ishtirok etish, kuchaytirish va inson huquqlarining o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan tahlil qilgan va shunday xulosaga kelgan: **2030 Agenda** bir qator sohalarda, xususan

⁶ UN General Assembly (2010) The Human Right to Water and Sanitation, A/RES/64/292. New York: United Nations. <https://digitallibrary.un.org/record/687002?v=pdf>

⁷ UN General Assembly (2022) The Human Right to a Clean, Healthy and Sustainable Environment, A/RES/76/300. New York: United Nations.



ishtirok etish tamoyilida, inson huquqlariga asoslangan yondashuv bilan muvofiq, ammo inson huquqlarini ta'minlash nuqta'iy nazaridan Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun monitoring va baholash sohasida ancha ko'p ish qilish zarur⁸. Bu muhim xulosa shuni anglatadiki, Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari o'rtasidagi mushtaraklik xalqaro hujjatlar darajasida e'tirof etilgan, lekin amaliy mexanizmlarda hali to'liq in'ikos aks etilmagan.

Bundan tashqari, **Boshoff va Arief** tadqiqotida quyidagi muhim fikr ilgari suriladi: tabiat huquqlari, kelajak avlodlar huquqlari va munosib hayot haqidagi muqobil tasavvurlar barqaror rivojlanish va inson huquqlari o'rtasidagi munosabatni yangicha izohlash uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qilishi lozim⁹. Ularning ta'kidlashicha, atrof-muhitning ekologik jihati barqaror rivojlanish konsepsiyasining barcha talqinlarida samarali inobatga olinishi shart. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda inson huquqlariga asoslangan yondashuvni nafaqat tavsiya etadi, balki majburiy qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari quyidagi uchta asosiy xulosaga olib keladi: Barqaror rivojlanish maqsadlari tizimi va inson huquqlari tizimi o'rtasidagi ekologik jihatdagi bog'liqlik me'yoriy jihatdan real va ahamiyatli, ammo bu bog'liqlikni amalda tatbiq etish uchun **hisobdorlik** va **monitoring mexanizmlari** sezilarli darajada kuchaytirilishi zarur va 2022-yilgi 76/300-sonli rezolyutsiya ushbu jarayonning huquqiy asosini yangi bosqichga ko'targan, ammo u hali majburiy ijro kuchiga ega emas.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarining ekologik jihatlari o'rtasidagi bog'liqlik me'yoriy jihatdan real va muhim bo'lsa-da, amalda bu bog'liqlikni samarali tatbiq etish jiddiy to'siqlarga duch kelmoqda. Hozir siz bilan ushbu ziddiyat atroficha tahlil etiladi va mavjud faktlar baholanadi.

⁸ De Man, A. (2019) 'The Sustainable Development Goals and the Rights-Based Approach to Development: Compatible or Missing the Point?', African Human Rights Law Journal, 19(1), pp. 445-462. <https://www.ahrlj.up.ac.za/de-man-a>

⁹ Boshoff, E. and Arief, D. (2024) 'Mapping the Frontiers of Sustainable Development and Human Rights as a Field of Enquiry', The International Journal of Human Rights, 28(5), pp. 733-748. <https://doi.org/10.1177/09240519241244562>

Eng avvalo, Barqaror rivojlanish bo'yicha joriy holat statistikasini qayd etish zarur. Barqaror rivojlanish maqsadlari **Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamentining** 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, ma'lumot mavjud bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlarining faqat 35 foizi belgilangan yo'nalishda bormoqda yoki mo'tadil progress ko'rsatmoqda; deyarli yarmisi yetarli sur'atda rivojlanmayapti yoki cheklangan progress qayd etmoqda; va 18 foizi orqaga ketmoqda¹⁰. Bu raqamlar faqat siyosiy muvaffaqiyatsizlik ko'rsatkichi emas, ular ayni vaqtda inson huquqlari inqirozining ham belgisidir. Chunki **Barqaror rivojlanish maqsadi (BRM) -6, BRM-13, BRM-14 va BRM-15** kabi ekologik maqsadlarda progress eng sekinlaridan biri hisoblanadi: quruqlikdagi ekotizimlar degradatsiyasi davom etmoqda, iqlim bo'yicha maqsadlar bajarilmayapti va suv xavfsizligi muammosi kuchayib bormoqda.

Bu holat bizning fikrimizcha ikki jihatdan muhim. Birinchidan, u **Fukuda-Parr** ning tanqidiy pozitsiyasini qisman tasdiqlaydi: BRM tizimining siyosiy maqsad sifatida shakllantirilishi va huquqiy majburiyat kuchidan mahrumligi uning samaradorligini cheklaydi. Agar ekologik BRMlar inson huquqlari majburiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lganida va davlatlar ularni bajarmaslik uchun huquqiy javobgarlikka tortilganida, progress sur'ati ancha yuqori bo'lishi mumkin edi. Ikkinchidan, bu holat **De Man** ning xulosasini ham tasdiqlaydi: **2030 Agendaning** "ishtirok etish tamoyili"da inson huquqlariga asoslangan yondashuv bilan muvofiqligi nisbatan yaxshi, ammo amalga oshirish, monitoring va baholash sohasida jiddiy bo'shliqlar mavjud.

Ixtiyoriy milliy sharhlar (VNR) muammosi. BRMlarni monitoring qilishning asosiy mexanizmi bo'lgan Ixtiyoriy milliy sharhlar (VNR) tizimi ham bir qator muammolarga duch kelmoqda. **OHCHR** ta'kidlaganidek, VNR "yumshoq hisobdorlik va progress monitoring mexanizmi" bo'lib, u majburiy emas va davlatlarga o'z yutuqlarini o'zlari baholash imkonini beradi¹¹. Bu holat jiddiy muammo yaratadi: inson huquqlarini nisbatan kam ta'minlayotgan davlatlar VNR hisobotlarida ijobiy natijalar ko'rsatishi mumkin. 2025-yildagi siyosiy forumda ba'zi davlatlar BRM bo'yicha yutuqlarni e'lon qilgan holda, inson

¹⁰ UN DESA (2025) "The Sustainable Development Goals Report 2025". New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs. <https://unstats.un.org/sdgs/report/2025>

¹¹ OHCHR (2023) "Voluntary National Reviews". Geneva: United Nations. <https://www.ohchr.org/en/sdgs/voluntary-national-reviews>



huquqlarini cheklash siyosatini davom ettirgan. Bu esa VNR tizimining inson huquqlari hisobdorlik tizimidan tubdan farq qilishini ko'rsatadi.

Ushbu maqolani yozish davomidagi tadqiqotimiz davomida bir qancha huquqiy va metodologik to'siqlar aniq ko'rindi. Ularning ichida eng muhimi - BRM va inson huquqlari tizimlarining mantiqiy farqidir. Inson huquqlari tizimi majburiyat va javobgarlik mantig'iga asoslangan. Davlatlar muayyan huquqlarni ta'minlash majburiyatini o'z zimmlariga olishadi va buni bajarmasa javob berishadi. BRM tizimi esa maqsad va ko'rsatkich mantig'iga asoslangan. Davlatlar o'zlariga munosib maqsadlar qo'yishadi va ularga qanchalik yaqinlashganini o'zlari baholaydi. Bu ikki mantiq bir-birini to'ldirishi kerak, ammo amalda ular ko'pincha bir-biridan alohida ishlaydi.

Ikkinchi muammo - ekologik BRMlarda moliyaviy bo'shliq. BMT Barqaror Rivojlanish Hisobotining 2025-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun BRM ni moliyalashtirishdagi umumiy bo'shliq yiliga 4 trillion AQSh dollarini tashkil etmoqda¹². Bu shuni anglatadiki, hatto eng yaxshi niyatli davlatlar ham resurssizlik sababli ekologik BRMlarni bajarish imkoniyatiga ega emas. Inson huquqlari doktrinasi bu muammoni "progressiv amalga oshirish" tamoyili orqali hisobga oladi, ya'ni davlatlar mavjud resurslar doirasida maksimal say-harakat qilishlari lozim. Ammo bu tamoyilning amalda qanday talqin etilishi hali ham bahsli masala bo'lib qolmoqda.

Uchinchi muammo - korporativ javobgarlikning yetishmasligi. **2030 Agendaga** ko'ra xususiy sektorning roli ijobiy baholanadi, ammo uning harakatlarini nazorat qilish va hisobdorligini ta'minlash mexanizmlari belgilanmagan. Atrof-muhitga zarar yetkazadigan transmilliy korporatsiyalar BRM maqsadlariga erishishga to'sqinlik qilsa ham, ularni xalqaro huquq doirasida mas'ul qilish hali ham nodir holat bo'lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqotda qo'llangan huquqiy tahlil va qiyosiy metodlar BRM va inson huquqlari o'rtasidagi ekologik bog'liqlikni ikki yo'nalishda - me'yoriy va amaliy - o'rganish imkonini berdi. Bu yondashuv **Kim** ning metodologiyasiga o'xshash bo'lib, u ham BRM va xalqaro huquq o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli ravishda tahlil etgan. Ammo ushbu maqola Kimdan farqli ravishda 2022-2025 yillar

¹² UN DESA (2025) "The Sustainable Development Goals Report 2025". New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs.



orasidagi eng yangi statistik ma'lumotlar va 76/300-sonli rezolyutsiyaning amaliy oqibatlariga alohida e'tibor qaratadi.

De Man va **Boshoff** va **Arief** ishlari bilan solishtirganda, ushbu tadqiqot ularning xulosalarini umumiy jihatdan tasdiqlaydi: BRM tizimi va inson huquqlari tizimi o'rtasidagi mushtaraklik hujjatlar darajasida e'tirof etilgan, ammo amaliy integratsiya hali to'liq amalga oshmagan. Biroq ushbu maqola ulardan farqli ravishda VNR tizimining zaifligini alohida muammo sifatida ko'rsatib, inson huquqlari monitoring mexanizmlari xususan, **Universal davriy ko'rib chiqish (UPR)** va shartnoma organlarining BRM oldidagi hisobdorligini kuchaytirish uchun strategik vosita bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu ikki tizimning o'zaro uyg'unligi BRMlarni huquqiy asosga ko'chirish uchun eng istiqbolli yo'l sifatida ko'rinmoqda.

Xulosa

Ushbu maqolada biz Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarini himoya qilishning ekologik jihatlari o'rtasidagi bog'liqlikni xalqaro-huquqiy nuqtai nazardan tahlil etdik. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu bog'liqlik abstrakt nazariy konstruktsiya emas, balki xalqaro hujjatlar, sud amaliyoti va global statistika orqali tasdiqlangan real huquqiy haqiqatdir. Shu bilan birga, nazariy asosning mustahkamligi amaliy tatbiqning yetarliligini anglatmaydi. Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi.

Birinchi xulosa: BRM tizimi va xalqaro inson huquqlari huquqi o'rtasidagi ekologik jihatdagi mushtaraklik me'yoriy jihatdan real va ahamiyatli. **2030 Agendaning** asosiy tamoyillari tenglik, ishtirok etish va hech kimni ortda qoldirmaslik - inson huquqlari doktrinasining markaziy talablariga to'liq mos keladi. 2022-yilgi BMT Bosh Assambleyasining 76/300-sonli rezolyutsiyasi esa sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqni mustaqil inson huquqi sifatida tan olib, bu bog'liqlikni yangi huquqiy bosqichga ko'tardi.

Ikkinchi xulosa: BRM tizimining siyosiy maqsad sifatida shakllantirilishi va huquqiy majburiy ijro mexanizmidan mahrumligi uning samaradorligini cheklashda asosiy omil bo'lib qolmoqda. 2025-yilgi BMT hisobotiga ko'ra, BRM maqsadlarining faqat 35 foizi belgilangan yo'nalishda bormoqda va ekologik maqsadlar eng qoloq soha hisoblanadi. Bu holat **Fukuda-Parr** ko'targan tanqidiy



nuqtani - BRMning inson huquqlari majburiyatlaridan ajralib ishlashini amalda tasdiqlaydi.

Uchinchi xulosa: Ixtiyoriy milliy sharhlar tizimi BRM hisobdorligini ta'minlash uchun yetarli emas. Inson huquqlari monitoring mexanizmlari - xususan, Universal davriy do'rib chiqish va shartnoma organlari BRM tatbiqini kuchaytirish uchun strategik vosita sifatida faolroq ishlatilishi zarur.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: xalqaro hamjamiyat BRMlarni xususan, ekologik maqsadlarni inson huquqlari majburiyatlari bilan rasmiy ravishda bog'laydigan va majburiy monitoring mexanizmlari bilan ta'minlangan yangi huquqiy vosita ishlab chiqishi lozim; 76/300-sonli rezolyutsiya bilan tan olingan sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquq xalqaro majburiy shartnomaga aylantirilishi kerak; va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun BRM moliyalashtirish bo'shlig'ini qoplashda xalqaro moliyaviy mexanizmlar inson huquqlari tamoyillari asosida isloh qilinishi zarur. Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanish inson huquqlaridan ayri holda erishib bo'lmaydigan maqsaddir. Ekologik inqiroz esa bu haqiqatni har kuni yanada yaqqolroq ko'rsatib turibdi. Xalqaro huquq bu ikki tizimni birlashtirish uchun yetarli me'yoriy asosga ega - endi zarur bo'lgan narsa siyosiy iroda va amaliy mexanizmlardir.

REFERENCES

1. UN General Assembly (2015) "Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development", A/RES/70/1. New York: United Nations. https://www.un.org/ga/search/view_doc.asp?symbol=A/RES/70/1
2. UN General Assembly (2022) "The Human Right to a Clean, Healthy and Sustainable Environment", A/RES/76/300. New York: United Nations. https://digitallibrary.un.org/record/3983329/files/A_RES_76_300-EN.pdf
3. Kim, R.E. (2016) 'The Nexus between International Law and the Sustainable Development Goals', "Review of European, Comparative and International Environmental Law", 25(1), pp. 15-26. <https://doi.org/10.1111/reel.12148>
4. Fukuda-Parr, S. (2016) 'From the Millennium Development Goals to the Sustainable Development Goals: Shifts in Purpose, Concept, and Politics of Global Goal Setting for Development', "Gender and Development", 24(1), pp. 43-52. <https://doi.org/10.1080/13552074.2016.1142295>



5. OHCHR (2023) “Human Rights are Key to Ensuring No One is Left Behind”. Geneva: United Nations. <https://www.ohchr.org/en/stories/2023/09/human-rights-are-key-ensuring-no-one-left-behind>
6. UN General Assembly (2010) “The Human Right to Water and Sanitation”, A/RES/64/292. New York: United Nations. https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_RES_64_292.pdf
7. UN General Assembly (2022) “The Human Right to a Clean, Healthy and Sustainable Environment”, A/RES/76/300
8. De Man, A. (2019) ‘The Sustainable Development Goals and the Rights-Based Approach to Development: Compatible or Missing the Point?’, “African Human Rights Law Journal”, 19(1), pp. 445-462. <https://www.ahrlj.up.ac.za/de-man-a>
9. Boshoff, E. and Arief, D. (2024) ‘Mapping the Frontiers of Sustainable Development and Human Rights as a Field of Enquiry’, “The International Journal of Human Rights”, 28(5), pp. 733-748. <https://doi.org/10.1177/09240519241244562>
10. UN DESA (2025) “The Sustainable Development Goals Report 2025”. New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs. <https://unstats.un.org/sdgs/report/2025>
11. OHCHR (2023) “Voluntary National Reviews”. Geneva: United Nations. <https://www.ohchr.org/en/sdgs/voluntary-national-reviews>
12. UN DESA (2025) “The Sustainable Development Goals Report 2025”.